

O'RTA OSIYO VA ROSSIYA O'RTASIDAGI SAVDO MUNOSABATLARIDA MAHALLIY BOZORLARNING TUTGAN O'RNI

Mirsaid Parpiyev,
UNIVERSITY OF BUSINESS
SCIENCES (UBS) universiteti
Tarix mutaxassisligi II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'rta Osiyo xonliklarining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi bilan olib borgan savdo aloqalarida mahalliy bozorlarning tutgan o'rni tahlil qilingan. Unda O'rta Osiyo shaharlaridagi mahalliy bozorlarning tuzilishi, mahsulot ayirboshlash usullari, bu yerga kelgan rus sayyohlarining esdaliklariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Kalit so'z va iboralar: O'rta Osiyo, xonliklar, shaharlar, bozorlar, savdo, Rossiya imperiyasi, ruslar, yahudiylar, chorsu, hunarmandchilik, ishlab chiqarish, tanga.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется роль местных рынков в торговых отношениях среднеазиатских ханств с Российской империей в конце XIX – начале XX веков. Основное внимание уделяется структуре местных рынков в среднеазиатских городах, способам товарообмена и воспоминаниям русских путешественников, посетивших их.

Ключевые слова и фразы: Средняя Азия, ханства, города, рынки, торговля, Российская империя, русские, евреи, Чарсу, ремесла, производство, монеты.

ANNOTATION

This article analyzes the role of local markets in the trade relations of the Central Asian khanates with the Russian Empire in the late 19th and early 20th centuries. It focuses on the structure of local markets in Central Asian cities, methods of product exchange, and the memories of Russian travelers who visited them.

Key words and phrases: Central Asia, khanates, cities, markets, trade, Russian Empire, Russians, Jews, Charsu, crafts, production, coins.

Ma'lumki, O'zbekiston hududida qadim davrlardan savdo-sotiq aloqalari doimiy yo'lga qo'yilgan bo'lib, mintaqa xalqlari nafaqat o'zaro ichki savdo aloqalari, balki Sharq va G'arbdagi davlatlar bilan ham savdo-sotiq munosobatlari olib borganlar. O'rta Osiyo xonliklarining hududi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, Rossiya bilan savdo-sotiq yanada kengaygan. Rossiya imperiyasining Moskva, Irbit, Nijniy-Novgorod, Orenburg, Yaroslavl kabi, Turkiston o'lkasining Toshkent, Buxoro, Qo'qon, Avliyoota, Olmaota singari shaharlaridan ko'proq miqdorda mollar keltirilib, Samarqand bozorlarida sotilardi. Bu davrda Rossiyadan keltirilayotgan mollar ichida trikotaj (asosan chit), temir, cho'yan va ulardan tayyorlangan buyumlar hamda har xil bo'yoqlar va qand, choy kabi oziq-ovqat mahsulotlari Zarafshon vohasida xaridorgir bo'lgan. Chetga esa Zarafshon vohasidan, asosan, Rossiya sanoati uchun muhim xom ashyo hisoblangan paxta, pilla, chorvachilik mahsulotlari va mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan turli xildagi buyumlar olib chiqilgan. Mintaqada yashab turgan O'rta Osiyolik yahudiylarning savdo-sotiqdagi faoliyatlari Rossiya imperiyasi hukmronlik davrida ayniqsa faollashdi. Imperiya hukumati O'rta Osiyo yahudiylarining bunday faoliyatini hatto rag'batlantirib ham turdi.

Yuqorida so'z yuritganimizdek, etnoslararo aloqalarda savdo-sotiq bo'ladigan yerlar – bozorlarning ahamiyati beqiyos edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, O'rta Osiyo shaharlarida bozorlar ixtisoslashib, professional mashg'ulotga aylangan holda IX – X asrlarda paydo bo'lgan va XV asrning oxiri – XVI asr orasida yanada rivojlangan. Ayniqsa, ushbu davrda ichki va tashqi savdo ham rivojlanadi, mazkur holat Samarqand hamda Buxoro kabi shaharlarning qiyofasida yorqin namoyon bo'ladi. XVIII–XIX asrlarda Samarqand va Buxoro bilan bir qatorda Toshkent, Xiva, Qo'qon hamda O'rta Osiyoning boshqa shaharlarining roli ortgan va mazkur markazlarda ham yirik, ham mayda bozorlar faoliyat ko'rsatgan.

Odatda, shaharlarning mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan biri – bozorlarga doimo alohida ahamiyat berilganligida edi. Bozorlarning katta-kichikligi, boyligi va

boshqa jihatlari shaharlarning mamlakatda tutgan o'rni va siyosiy vaziyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan [1. 39]. Agar mamlakat iqtisodiy tanazzulni o'z boshidan kechirayotgan bo'lsa, bozorlarning ahvoli og'irlashgan. Yoki aksi bo'lsa, bozorlar gullab-yashnaganligini kuzatish mumkin.

O'rta Osiyo bozorlari qurilishi jihatidan bir qancha umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan. Odatda, bozorlar odamlar gavjum bo'ladigan shaharning markaziy qismida katta ko'chalar kesishgan yerlarda va ko'chalar bo'ylab vujudga kelgan. Yirik shaharlarda tijoriy ishlab chiqarishni o'zida aks ettiradigan bitta asosiy bozor bo'lgan. Bunday bozor ko'pincha asosiy ko'chalar kesishadigan joylarda o'rnashgan bo'lib, *chorsu*, *choxarsu* deb yuritilgan. *Chorsu* so'zi dastlab zardushtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da *chovrusuq* (to'rt tomonlama) shaklida uchraydi va *bozor* ma'nosini anglatgan. Keyinchalik ushbu atama *chaharsu* va nihoyat *chorsu* shaklini olgan [2. 150]. Chorsular asosan, usti yopiq gumbazli bozorlar bo'lib, ularning mayda ostki bo'limlarida ma'lum mollar sotilar edi.

XIX asr manbalarida Samarqand Chorsusiga Registon yaqinidagi chorrahada joylashgan usti yopilgan va har tomondan chiqish mumkin bo'lgan tosh (g'isht)dan qurilgan savdo inshooti deb ta'rif berilsa, Shahrisabz va Qarshi *Chorsusi* “uncha katta bo'lmagan, usti gumbaz bilan yopilgan aylana shaklidagi inshootlar”, - deb ta'riflanadi [3. 193]. Lekin, aslida Shahrisabz *Chorsusi* qurilgan davr (1598–1602 yillar) va keyinchalik ham shaharning bosh savdo inshooti hisoblangan. To'rt tomondan kelgan yo'llar sahni shu savdo “tim”ining o'rtasidagi ulkan gumbaz tagida kesishgan. Uning ostidagi savdo rastalari bo'ylab to'rt burchakli xonalar joylashgan bo'lib, ushbu xonalardan hozir ham savdo inshooti sifatida foydalaniladi [4. 126].

Sharq bozorlarining topografik jihatdan joylashishi diqqatga sazovor. Shaharning markaziy qismida, asosan, zargarlar, sarroflar, temirchilar, turli kiyim-kechaklar bilan savdo qiluvchi va boshqa ko'pgina bozorlar joylashgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi va chorva bozorlari shaharning chetida yoki uning tashqarisida joylashgan. Bunday manzarani O'zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy mintaqalaridagi bozorlarda ham kuzatish mumkin. Jumladan, O'rta Osiyoda mashhur Qo'qon va Qarshi bozorlari

shaharning markaziy qismida joylashgan bo'lsa, shahardan chiqaverishda hayvon bozorlari joylashgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ba'zida chorva bozori sotilayotgan hayvon turiga qarab «ot bozor», «qo'y bozor», «mol bozor»ga bo'lingan. Bu bozorlar atrofida o'z navbatida chorva uchun zarur bo'lgan pichan va yem-xashak bozorlari bo'lgan. Darhaqiqat, shaharlarda bir emas bir necha bozorlar faoliyat ko'rsatgan. Masalan, 1830 yilda birgina Qo'qon shahrining o'zida maxsus savdo rastalari bilan jihozlangan oltita bozor bo'lgan [5. 121]. Ushbu bozorlarning aksariyati Qo'qon xoni Xudoyorxon davrida barpo etilgan bo'lib, undagi ko'plab do'konlar ham bevosita xonga tegishli bo'lgan [6. 190].

O'rta Osiyoning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi o'rganilayotgan hududlardagi bozorlar ham turli nomlar bilan, ya'ni shahar yoki qishloq nomi bilan yuritilgan. Ayni vaqtda haftaning qaysi kunida bozor bo'lishiga qarab ham bozorlar nomlangan. Chunonchi, «Payshanba bozor», «Juma bozor» va hokazo.

XX asr boshlarida Xo'jand shahrida ikkita bozor bo'lgan. Haftaning qaysi kunida bozor bo'lishiga qarab biri «Payshanba bozor» ikkinchisi «Chorshanba bozor» deb nomlangan. «Payshanba bozor» shahar markazining sharqiy qismida «Chorshanba bozor» esa shaharning janubi-sharqida joylashgan. Har ikkala bozor ham tuzilishi va ko'rinishiga ko'ra, Buxoro Qo'qon, Samarqand bozorlariga ko'p jihatdan o'xshash bo'lib, ularda qator joylashgan do'konlar, savdo rastalari, karvonsaroy va savdo maydonlari mavjud bo'lgan.

Yuqorida biz ma'lum bir hududda bir vaqtning o'zida bir necha bozor faoliyat ko'rsatganligini ham aytib o'tdik. Ularda, asosan, nima bilan savdo qilinganligiga qarab ham bozorlar nomlangan. «Mol bozor», «don bozor», «o'tin bozor» kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, bozor ma'lum bir etnik jamoa g'uj joylashgan hududda joylashsa, shu etnik jamoa nomi bilan ham nomlangan. Masalan «o'zbek bozor», «tojik bozor», «arab bozor» va hokazo.

XIX asr oxiriga kelib shaharlarning tashqi va tranzit savdosining markazi tarzidagi ahamiyati ortib borishi bilan birga markaziy shaharlar bozorlariga turli mamlakatlar savdogarlarining kelishi kuchayib bordi. Mintaqaning katta shaharlariga

Eron, Xitoy, Balx, Rossiya, Afg'oniston, Hindiston mamlakatlaridan savdogarlarning doimiy ravishda kelgan. O'z navbatida mintaqadagi o'zbek, tojik, qirg'iz, uyg'ur savdogarlari ular bilan birga uzoq-uzoq mamlakatlarga savdo qilgani borishgan.

XIX asrda mintaqadagi ko'plab katta shaharlar singari Qo'qon, Termiz, Qarshi shaharlariga Hindistondan haydar shoyi, shol ro'mollarning turli xillari, nil bo'yog'i (indigo), ziravorlar – murch, dolchin, zircho'pa; oziq-ovqat mahsulotlari – shakar, novvot; haqiq serdolik; Peshavordan lungi, guruch, charmdan tayyorlangan tarozilar, Xitoydan tukachoy, oqquyruq (ko'k choy), chinni buyumlar va boshqalar keltirilganligi manbalarda qayd qilingan [7. 47]. Bunday mahsulotlar orasida hunarmandchilik uchun zarur bo'lgan nil bo'yog'i (indigo) shaharlarga katta hajmda keltirilgan. Rus tarixchisi P. M. Demidovning yozishicha, "Qarshi Buxoro va Xiva karvonsaroylari" bunday mahsulotlar bilan to'la bo'lgan [8. 58].

Xorijiy savdogarlar to'xtaydigan, muntazam yashaydigan va o'z mollarini saqlaydigan karvonsaroylarning bu davrga kelib ko'payishi shaharlarning yirik savdo markazlari tarzidagi ahamiyati oshishiga va o'z navbatida turli etnoslararo savdo aloqalarining jadal rivojlanishiga sabab bo'lgan. O'sha davrda Qo'qon, Xo'jand, O'sh, Qarshi, Termiz, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi bir qancha karvonsaroylar, «o'rislar karvonsaroyi», «hindlar karvonsaroyi», «hindular karvonsaroyi» kabi nomlar bilan yuritilgan. Ba'zi shaharlarda karvonsaroylarning ayrimlari yahudiylarga ham tegishli bo'lgan. Jumladan, Qarshidagi uchta karvonsaroydan biri yahudiylarga tegishli bo'lgan. Bu haqida XIX asrda yashagan rus mualliflari quyidagicha yozadi: "Shaharda karvonsaroylar uchta, lekin ularning ikkitasigina shaharga keladigan karvonlarga xizmat qiladi, uchinchi esa yahudiylar tomonidan sotib olingan va egallangandir" [9. 85].

Karvonsaroylar savdogarlar to'xtaydigan va o'z mollarini saqlaydigan joy bo'libgina qolmasdan, u yerda ba'zan ma'lum mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hunarmandlar ham yashaganlar, I. V. Vetkeevichning ta'kidlashicha, XIX asrning 30-yillarida Buxorodagi No'g'oy saroyida rossiyalik tatarlar yashaganlar va «ko'p vaqtlarini ochiq havoda» poyabzal tikish bilan o'tkazganlar [10. 102]. Filxona

saroyida ham tatar hunarmandlari – kavushdo'zlar yashaganlar va mahsulot ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganlar [11. 53].

Shahar va bozorlarda joylashgan choyxonalar ham etnoslararo muloqatlar bo'lib o'tadigan o'ziga xos jamoat joyi hisoblangan. Odatda, bunday choyxonalarda aholi ovqatlanib, dam olishi bilan birga turli etnik jamoalar orasida savdo kelishuvlari ham yuz bergan. Bundan tashqari, choyxonalar musofirlar uchun tunab qolish joyi – mehmonxona ham hisoblangan. Bu kabi choyxonalarda olisdan bozorga mol olib kelgan aholi tunab ham qolgan.

Sharq hunarmandlari tomonidan yaratilgan va qolaversa boshqa yurtlardan olib kelingan turli-tuman mahsulotlarni sotish ichki va tashqi savdo hamda savdo-iqtisodiy inshootlar – bozorlar, do'konlar, karvonsaroylar tizimi rivojlangan. Shuningdek, hunarmandchilik va savdo o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik natijasida savdo-sotiqning rivojlanishiga va shahar ahlining ma'lum ma'noda tabaqalanishiga va savdo jarayoniga boshqa ijtimoiy soha vakillarining ham faol tortilishiga olib kelgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo shaharlarida jamiyatning turli vakillari: mansabdor shaxslar, hunarmandlar, savdogarlar, ziyolilar bilan bir qatorda yirik yer egalari ham yashar edi. Bu esa bevosita O'rta Osiyo shaharlari tarixiy taraqqiyotining G'arbiy Yevropa shaharlaridan ajralib turuvchi xususiyatlaridan biridir [12. 130].

Shunday qilib, yuqoridagi materiallardan ko'rinib turibdiki, O'rta Osiyo xonliklari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida o'zaro va qo'shni mamlakatlar bilan qizg'in savdo aloqalarini olib borganlar. Bozorlar esa nafaqat mol ayirboshlaydigan, ayni vaqtda turli etnik guruhlar o'zaro muloqotda bo'ladigan joy, ya'ni turli etnoslar orasidagi etnomadniy muloqot va madaniyatlar almashinuvi xududi ham hisoblangan. Bozorlarga mol olib kelgan savdogarlar nafaqat o'zlarining mollari, balki o'z mamlakatlari madaniyatini ham olib kirganlar va aynan bozorlar turli madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик..
– Тошкент, 2015. – Б. 39.
2. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент, 1978. – Б. 150.
3. Хорошхин А. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края.
Самарканд. – СПб., 1876. – С. 193.
4. Зоҳидов П. Ш. Меъмор олами. – Тошкент, 1996. – Б. 126.
5. Абдуллаев У. С. Фарғона водийсидаги этнослараро муносабатлар. – Тошкент,
2005. – Б. 121.
6. Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент, 1973. – С. 190.
7. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида ҳунармандчилик..
– Б. 47.
8. Демидов П. М. Записки о Бухарском ханстве. – М., 1856. – С. 58.
9. Хаников В. П. Описание Бухарского ханство. – М., 1843. – С. 85.
10. Демидов П. М. Записки о Бухарском ханстве... – С. 102.
11. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарларида
ҳунармандчилик... – Б. 53.
12. Мукминова Р. Г. Социальная дифференциация населения городов
Узбекистана в X–XVII вв. – Ташкент, 1985. – С. 130.